

YOSHLAR TA'LIMI, IJTIMOYIY FAOLLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTONDA AMALIY ISLOHOTLAR

ABDULLAYEVA MOHINISO

Alfraganus universiteti Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Rustam Rashidov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlar ta'limi va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, "Yashil makon" kabi tashabbuslarning ahamiyati, jamiyatlardagi ekologik ongning oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, raqamlashtirish jarayonlari va davlat siyosati yoritilgan. Shu bilan birga, Orolbo'yi ekologik fojiasi, xalqaro hamkorlik, BMT doirasidagi tashabbuslar haqida ham tahliliy yondashuv asosida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy faollik, ekologik madaniyat, ta'lim islohotlari, yashil makon, raqamlashtirish, ekopatrul, Orolbo'yi fojiasi, barqaror rivojlanish, BMT tashabbuslari, global iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik, ekologik qonunbuzarliklar, fuqarolik mas'uliyati, sharqona tarbiya an'analari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются вопросы повышения образовательной и социальной активности молодежи в Узбекистане, формирования экологической культуры, значение таких инициатив, как "зеленое пространство", меры, направленные на повышение экологического сознания в обществе, процессы цифровизации и государственная политика. При этом на основе аналитического подхода были рассмотрены экологическая трагедия Приаралья, международное сотрудничество, инициативы в рамках ООН.

Ключевые слова: *Молодежное воспитание, социальная активность, экологическая культура, образовательные реформы, зеленое пространство, цифровизация, Экопатруль, трагедия Приаралья, устойчивое развитие, инициативы ООН, глобальное изменение климата, биоразнообразие, экологические нарушения, гражданская ответственность, традиции восточного воспитания.*

ANNOTATION

This article highlights the importance of initiatives such as raising youth education and social activity in Uzbekistan, the formation of ecological culture, green space, measures aimed at increasing environmental awareness in society, digitization processes and public policy. At the same time, it was also thought on the

basis of an analytical approach about the ecological tragedy of the archipelago, international cooperation, initiatives within the UN.

Keywords: *Youth education, social activism, environmental Culture, Education Reform, green space, digitization, ecopatrol, Islet tragedy, sustainable development, UN initiatives, global climate change, biodiversity, environmental violations, civic responsibility, traditions of Oriental Education.*

KIRISH

Jamiyatdagi ijtimoiy faollik har bir davrning o'ziga xos rivojlanish darajalarini sifat jihatdan belgilab beruvchi muhim omillardan biri bo'lib, fan va texnologiyalar jadal taraqqiy etib borayotgan XXI asrda yoshlar ta'lim va tarbiyasi bilan ham uzviy aloqadorlikka egadir. Yurtimizda davom etirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ko'z qorachig'iday asrab avaylashni o'rgatishga ko'p jihatdan yo'naltirilgandir. Binobarin, tabiat va u bilan bog'liq ekologik madaniyat munosabatlarni yuksaltirish tabiiy qadriyatlar sifatida alohida o'rin egallaydi. Yangilanib borayotgan O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kezlardan boshlab, to hozirgi kunimizga qadar jamiyatning barcha bo'g'inlarini – jumladan, yoshlar, ayollar, ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan qatlamlarning barchasini keng qamrovli asosda ijtimoiy faol bo'lishliklari borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

TAHLIL

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov o'z davrida «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida ta'kidlaganidek: «... kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi» .

Darhakikat, yurtimiz kelajagi porloq bo'lishligi uchun yoshlarning bilim olishi, har tomonlama etuk shaxslar bo'lib etishishliklari uchun barcha sharoitlar yaratilgan va bu o'z samaralarini bermoqda. Tabiat, atrof-muhit va ularga oqilona munosabatda bo'lishlik mamlakatimizdagi yoshlarga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning bir qismi bo'lib, uning axloqiy aspektlari borasida ko'plab fikrlar bayon qilinmoqda. Bugungi raqamlashtirish texnologiyalari taraqqiy etgan bir davrda mavjud qarashlarni yangi

zamonaviy asnoda rivojlantirish, yanada jonlantirish, yuksaltirishga ko‘proq e‘tibor beraverishimiz zarur.

Binobarin, prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ilk marotaba Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi bosh shtab kvartirasida 2017 yil 12 sentyabrda chiqish qilgan vaqtdayoq, u Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish, BMTning Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyasini ishlab chiqish, Orolbo‘yi muammosiga e‘tiborni oshirish va Afg‘oniston muammosini hal etish kabi masalalarga oid takliflarni ilgari surgan edi. Ushbu yuqoridagi takliflar bo‘yicha hozirga qadar bir necha bor konferensiya va simpoziumlar o‘tkazilishi barobarida qator amaliy ishlar ham qilib kelinmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston davlat raxbari BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida hammamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlar xususida to‘xtalib, har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta‘minlaydigan adolatli global tizimni yaratishdan iborat bo‘lajagi to‘g‘risidagi fikrni ilgari surgan edi. Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizasiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O‘zbekiston o‘ziga xos mazmun asosida shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan dinamik tus olib rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etishini inobatga olgan holda respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun Yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari agentligi va yana qator tashkilotlar tizimli ravishda ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Davrimizning hozirdagi o‘tkir muammolaridan biri – global iqlim o‘zgarishlaridagi anomal holatlarning namoyon bo‘lib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta‘sirini his etmoqda. Bunday o‘zgarishlar Markaziy Osiyo mamlakatlari hududlarida ham kuzatilmoqda va uning taraqqiyotiga muayyan xavflarni tug‘dirmoqda. Jumladan, Orolbo‘yi hududi ekologik fojيانing markaziga aylanib bo‘ldi, ichimlik suvi, flora va faunada yuzaga kelgan muammolar, Amudaryo oqim yo‘nalishning qo‘shni Afg‘oniston davlati tomonidan o‘zgartirishga bo‘layotgan harakatlar va boshqalar. Mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu erda ikki million gektar yangi o‘simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston tashabbusi bilan Orolbo‘yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik trust fondi tuzildi. Ushbu fond og‘ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Avvalari ham daraxtlar ekilgan, ammo bunchalik darajada e‘tibor, tizimli

yondashuvlar etarlicha bo'lmagan. O'sha vaqtlarda o'zimiz guvohi bo'lganmiz, daraxt va ko'chatlarning ko'p joylarda umuman egasi yo'q edi. Xohlagan odam daraxtlarni istagan joyidan kesib ketardi va bunday holatlarga nisbatan to'sqinlik sezilarli darajada bo'lmagan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev raisligida 2021 yil avgust oyida o'tkazilgan yig'ilishda ekologiya sohasida qo'llaniladigan jarimalar miqdori 5 baravar, etkazilgan zarar uchun kompensasiya miqdori 2 baravarga oshirilishini alohida ta'kidlab, Toshkent shahri va viloyat markazlarida ekologiya polisiyasi tashkil etilishini ma'lum qilgan edi. Ekologiya polisiyasining zimmasiga ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklar, jumladan, daraxtlarni ruxsatsiz kesish, brakonerlik, noqonuniy chiqindilar tashlash kabi holatlarga qarshi profilaktika vazifalarini olib borish ishlari yuklatilgan edi, ushbu ishlar ijtimoiy tafakkurda mas'uliyat hissini ancha jonlantirib jamiyat hayotida yangidan-yangi tashabbuslar yaratilishiga sabab bo'ldi.

Namanganda ham ekologiya bilan bog'liq muammolarni aniqlash, kamchilik hamda qonun buzilish holatlarini bartaraf etish maqsadida viloyat IIB PPX va JTSB PPXB hamda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi xodimlari hamkorligida shahar bo'ylab nazorat reydlar tadbirlari o'tkazilishi tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy hayotimizda sodir etilayotgan ayrim ekologik qonun buzilish holatlariga nisbatan Prezident qarori bilan O'zbekistonda daraxtlarni kesishga moratoriy 2024 yilga qadar uzaytirildi. Javobgarlik keskin kuchaytirilib, sohada mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan rahbar shaxslarga chora ko'rish belgilandi. Yangi qabul qilingan qarorga ko'ra, qimmatbaho daraxt kesganlik uchun javobgarlik jarimasi miqdori ikki baravarga ortgan .

“Yashil makon” harakati doirasida bahor oylarida mevali va manzarali ko'chatlar ekish an'anaga aylanib bormoqda. O'zbekistonda daraxtlar va o'simliklar dunyosi bioxilma-xillikka ega bo'lib borayotgan bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda oxirgi vaqtlarda shuni ko'rish mumkin-ki, jamoatchilikning e'tibori ko'kalazorlashtirish, tabiatga qayg'urish, ko'chat o'tkazish kabi sohalarga ancha kuchaygan.

Bundan tashqari, har yili “Yashil makon” harakati asosida daraxtlarning sifatli sug'orilishi va parvarishi, bu boradagi ishlarning javobgarligi, ularga nisbatan ko'riladigan choralar, hatto olimlarning fikri olinishi, daraxtni hududning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ekilishigacha e'tibor berilmoqda.

Shuningdek, xodimlar fuqarolarga jamoat joylarida tozalik va ozodalikka rioya etishlarini, atrof muhitni chiqindilar bilan to'ldirish emas, ulardan tozalashda faol bo'lishlarini ta'kidlashmoqda. Qaerda noqonuniy daraxt va boshqa o'simlik, yoki hayvonlarni nobud qilishga urinish holatlari kuzatilsa bu haqda darhol tegishli

idoralariga xabar berish lozimligi tushuntirilib uning huquqiy asoslari mustahkamlab borilmoqda. Eng quvonarlisi yashillik muhim ekanini ko'pchilik qatori voyaga etib kamol topayotgan yoshlar qatlami ham tushunib etmoqda. Hozirda ekologik nazorat inspeksiyalari va ularga tayanch vazifasini bajaruvchi ekopatrul guruhlarini ham faol harakatlar olib bormoqdalar, ularga hududlarni o'rganish, tezkorlik bilan joylarga borish vakolatlari berilgan. Binobarin, ayrim OTM lar huzurida, jumladan Namangan davlat universitetida ham faol talabalardan iborat ekopatrul guruhini tashkil etilganligi quvonarli holatlardan hisoblasak bo'ladi. Avvallari faqat ekologiya xodimining o'zi nazorat olib borardi, hozirgi kunda esa bir o'zi emas, ekopatrulga birlashtirilgan ichki ishlar xodimi, Milliy gvardiya xodimlari va mahallalardagi fuqarolar ishtirokida joylarni o'rganib borilmoqda. Ayniqsa, birlashtirilgan huquqni muhofaza qilish tizimi tabiatni asrab-avaylash borasida yaxshi samara bermoqda. Boisi, ekologiya xodimlari tartibni saqlovchi xodimlar bilan birgalikda nazorat olib borsa, muammolar oson echimini topmoqda.

Shuningdek, ushbu soha ham raqamlashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda, elektron bazalar tashkil etib zamonaviy ish uslublari tashkil etilmoqda. Bu o'zgarishlar tabiatga nima beradi? "Yashil makon" O'zbekiston hududida yashillikning ortishiga olib keladi. Yashillik bor joyda toza havo bo'ladi va albatta, u erda salomatlikning o'ziga xos omillari yaratilgan bo'ladi. Shuningdek, u faqat karbonat angidridni emas, balki yo'l bo'yidagi changlarni ham ushlab qolish qobiliyatiga ega. Yashab turgan zamin, tabiat barchamizniki, uning buguni va kelajagi oldida barchamiz mas'uliyatlimiz. Shu bois, har doim yashab turgan makonimizni ko'klamzorlashtirish, yashillikka burkab borishimiz zaruriy tabiiy qadriyatlarga aylanmog'i lozim. Bu kabi ezgu ishlarni amalga oshirib borishimiz bilan ayniqsa, yosh avlodga doimo ibrat, ezgulik timsoli bo'lishimiz zarur.

XULOSA

Dunyoning turli nuqtalarida notinchlik saqlanib qolayotgani, ziddiyat va zo'ravonliklar ortib borayotgani qator ekologik ofatlar va boshqa zamonaviy xatarlar – qashshoqlik, kambag'allik va yana ko'plab yangidan-yangi umuminsoniy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shunday murakkab davrda O'zbekiston jahonning barcha mamlakatlari bilan keng ko'lamli va o'zaro manfaatli sheriklik asosida, hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning institutlari bilan amaliy muloqotni rivojlantirish uchun doimo astoydil harakat qilib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. - 61-62-b.

2. Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi to‘liq nutqi. «JAHON» AA 24.09.2020.
3. Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘pshiriklik trast fondi 2018 yil noyabrda BMT shafeligida tashkil etilgan.
4. <https://iiv.uz/oz/news/namanganda-ekopolitsiya-tashkil-etilmoqda>
5. <https://daryo.uz/k/2023/03/07/oshirilgan-jarimalar-10-baravar-kamaygan-daraxt-kesish-holatlari-ekologiyaga-masul-kuch-ishlatar-tuzilmalar-ekoinspeksiya-boshligi-adham-qurbonov-bilan-suhbat>